



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Соҳибназар Каримов Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
Diyor Haqberdievich Xolmamatov Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
Rustam Nuridinovich Jiyamuratov Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Ziyobidin Shaminovich Suvonov Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Фарход Бахриддинович Ахроров Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
Shexroza Madjitovna Karimova Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Феруза Асатовна Ишонкулова Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Сарвар Аюбовна Исхакова Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
Zoxid Sobirovich Axmedov Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
Обид Мамаюнович Пардаев Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
Фарход Анварович Сафаров Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
Orzujon Mamasoliyevich Rajabov Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Bekzod Maxsudovich Abdumannonov Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

ривожланишига тарихан тўсқинлик қилган геосиёсий хатарларни ва хавфсизлик билан боғлиқ муаммоларни юмшатишга ёрдам беради.

Умуман олганда, Ўзбекистоннинг 2040 йилдаги ривожланишини кўп тармоқли иқтисодиёт, тараққий этган хизмат кўрсатиш соҳаси, замонавий инфратузилма ва транспорт тармоқлари, минтақавий интеграциянинг юқори даражаси, янада қулай ишбилармонлик муҳити билан тавсифлаш мумкин. Бироқ бу мақсадга эришиш учун барқарор савий-ҳаракатлар ва ислоҳотларни давом эттириш, шунингдек, жаҳоннинг иқтисодий ривожланиш тенденциялари, геосиёсий кескинлик ва экологик омиллар таъсирида юзага келаётган муаммоларни бартараф этиш зарур.

Ф.Сафаров	F. Safarov
Возможности проведения комплексного стратегического анализа сферы услуг в Узбекистане с использованием TOWS-матрицы	Opportunities for conducting a comprehensive strategic analysis of the service sector in Uzbekistan using the TOWS matrix
<p>Аннотация: в статье проводится комплексный стратегический анализ сферы услуг в нашей стране с использованием усовершенствованной формы SWOT-анализа – матрицы TOWS. В результате изучения внешних и внутренних факторов предлагается осуществить их межгрупповую интеграцию.</p> <p>Ключевые слова: сфера услуг, стратегия, SWOT-анализ, TOWS-матрица, положительное влияние, отрицательное влияние, внутренняя среда, внешняя среда.</p>	<p>Abstract: the article provides a comprehensive strategic analysis of the service sector in our country using an improved form of SWOT analysis - the TOWS matrix. As a result of studying external and internal factors, it is proposed to carry out their intergroup integration.</p> <p>Keywords: service sector, strategy, SWOT analysis, TOWS matrix, positive influence, negative influence, internal environment, external environment.</p>

Orzujon Mamasoliyevich Rajabov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

LOGISTIKA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<p>Annotatsiya: mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotga o'tishda raqamli texnologiyalardan iqtisodiyot-ning turli soha va tarmoqlarida foydalanish, jumladan, logistika xizmatlari ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari yoritilgan. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar sifatida maqolada blokcheyn, Big Data, buyumlar Interneti (The Internet of Things - IoT), 3D bosib chiqarishdan foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan.</p> <p>Kalit so'zlar: raqamli logistika, raqamli texnologiyalar, blokcheyn, Big Data, buyumlar Interneti (The Internet of Things - IoT), 3D bosib chiqarish, aqlli transport tizimlari, uchuvchisiz transport vositalari.</p>
--

Kirish. Global zamonaviy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri milliy iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilish hisoblanadi. Raqamlashtirish iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini, jumladan, logistika xizmatlari va uning infratuzilmasini ham qamrab olmoqda. Logistika sohasini raqamlashtirish natijasida yangi “Logistika 4.0 yoki raqamli logistika” konsepsiyasi rivojlanmoqda. Logistika xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish xarajatlarini kamaytirish, logistika jarayonlarining tezligi, moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu orqali alohida korxonalar va umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda global raqamlashtirish ta'sirida logistika xizmatlari bozorining hajmi, tarkibi va ko'lamini kengaytirib bormoqda. Logistika xizmatlari sifatiga yangi talablar qo'yilmoqda va ta'minot zanjirini boshqarishga yangi yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bunda nafaqat xarajatlarni minimallashtirishga, balki, birinchi navbatda, maksimal iqtisodiy samara, qiymat va foyda olishga e'tibor qaratilmoqda. Bunga esa raqamli platformalar, raqamli texnologiyalar, jumladan, logistika ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilarini integratsiyalash va muvofiqlashtirish, jarayonlarni robotlashtirish, buyumlar Interneti (The Internet of Things - IoT), bulutli texnologiyalar, blokcheyn, dron orqali tovarlarni yetkazib berish, Big Data texnologiyasidan foydalanish yordam beradi.

Logistika xizmatlari samaradorligini oshirish, buyurtmalarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish, omborda bajariladigan operatsiyalarni, yuklarni tushirish va ortishni avtomatlashtirish darajasini oshirish, transport tashuvlarini nazorat qilish, ta'minot zanjirlari ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuv, shartnomalar tuzishda blokcheyn texnologiyalari, buyumlar Interneti, Big Data, sun'iy intellektdan foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy faoliyatning barcha soha va tarmoqlarini o'zgartirgani kabi logistika sohasida ham bir qator o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Logistika xizmatlari samaradorligiga tashishni tashkil qilish vaqtini qisqartirish va logistika xizmatlari ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilari savdo vositachilari, transport tashkilotlari, sug'urta va bojxona organlari hamda logistika kompaniyalarining axborot integratsiyasi orqali erishiladi. Ushbu integratsiyani ta'minlash uchun barcha biznes subyektlari o'z faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilmoqdalar.

Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bir qator xorijiy, MDH mamlakatlari, jumladan, Rossiya, Belarus olimlari bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. O.Larin va V.Kupriyanovskiyar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida transport va logistika xizmatlari bozorini transformatsiya qilish masalasini tadqiq qilishgan [1]. Belaruslik mutaxassis O.N.Kaporseva iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida logistika xizmatlari samaradorligini oshirish masalasini o'rgangan. O'z tadqiqotlarida O.N.Kaporseva logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda Big Data, blokcheyn, buyumlar Interneti, aqlli transport tizimlari, 3D bosib chiqarish, uchuvchisiz transport vositalarini qo'llashning ilmiy jihatlarini ko'rib chiqqan [2]. Yana bir belarusiyalik tadqiqotchi A.A.Korolyova raqamli logistikaning iqtisodiy samarasini o'rgangan [4].

2010-yildan boshlab logistika xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari jadallashdi. 2020-yil Negreyeva V.V., Zamyatina A.A., Shpakovich D.K., Sharonova A.D. logistikada raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'zlarining ilmiy maqolalarini chop ettirishgan [7]. Logistika sohasida blokcheyn texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari bo'yicha I.V.Kapkin, N.P.Ponomareva [3], yuklarni tashishda bojxona organlari hujjatlarini rasmiylashtirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish istiqbollari Nigmatulin T.A. ilmiy tadqiqotlarida tadqiq qilingan [8]. Korchagin S.O. ilmiy ishlarida blokcheyn texnologiyalarning rivojlanish kelajagi, uni sohalarda qo'llanilishi o'rganilgan [5].

Logistikada blokcheyndan foydalanish, blokcheyn texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha Lisenko Yu.V., Lisenko M.V., Garinov R.I. tadqiqot olib borishgan [6]. Raqamli logistikaning istiqbolli yo'nalishi bu buyumlar Internet texnologiyalaridan, jumladan robotlar va dronlardan foydalanishdir [9]. Bu borada ham bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan, jumladan, Big Data, blokcheyn, buyumlar Interneti, 3D bosib chiqarishni yoritishda taqqoslash usulidan foydalanilgan. Raqamli texnologiyalarni logistika sohasida qo'llanilishi bo'yicha ilmiy manbalar tizimli va qiyosiy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanib o'rganilgan. Shuningdek, maqolani yozishda abstrakt, fikrlash, analiz, sintez, mantiqiy tahlil usullaridan ham foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirish uchun foydalanilayotgan raqamli texnologiyalardan biri – bu **blokcheyndir**. Blockcheyndan foydalanish kompaniyadan o‘z faoliyati haqida kerakli ma’lumotlarni raqamlashtirishni talab qiladi.

Blokcheyn texnologiyasi (ing. Blockchain so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “blokklar zanjiri”) – bu doimiy blokklar zanjiri bo‘lgan ma’lumotlarni saqlash usulidir. Bu bloklarda qayd etilgan tranzaksiyalarni tekshirilishi mumkin bo‘lgan tarzda yozib oladigan tarmoq serverlari o‘rtasida taqsimlangan umumlashtirilgan hisob hisoblanadi. Bu texnologiya taqsimlangan daftar texnologiyasining bir turi. Blokcheyn texnologiyasi mijozlar, mahsulotlar va yetkazib beruvchilar haqidagi barcha ma’lumotlarni saqlaydigan ommaviy va o‘zgarmas kitobni taqdim etadi. An’anaviy ma’lumotlar bazalaridan farqli o‘laroq, blokcheyn texnologiyasidagi ma’lumotlarni o‘zgartirib, o‘chirib bo‘lmaydi. Faqat yangi ma’lumotlarni qo‘shib borish mumkin.

Logistika sohasidagi blokcheyn – bu ishning ishonchliligi va shaffofligini oshirish uchun mo‘ljallangan vosita hisoblanadi. Blokcheyn hujjatlardagi kelishmovchiliklarning oldini oladi va yetkazib berish tezligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Blockcheyndan foydalanadigan ta’minot zanjirining barcha ishtirokchilari hujjatlarning yagona shaklidan foydalanadilar va unga umumiy kirish huquqiga ega bo‘ladi. Har qanday o‘zgarishlar o‘chirilmaydigan yoki o‘zgartirilmaydigan yangi blokklar sifatida saqlanadi. Bunday ma’lumotlar bazasiga kirish har qanday kelishmovchiliklarni tezda hal qiladi.

Blokcheyn markazsizlashtirish, maxfiylik, ishonchlilik va murosaga kelish kabi bir qator xususiyatlarga ega. Blokcheynni amalga oshirishning asosiy afzalligi sheriklar o‘rtasida sinxronlashtirilgan auditni ta’minlash va real vaqtda jarayonlarni optimallashtirishdir. Blokcheyn qaror qabul qilish jarayonini soddalashtiradi, ma’lumotlarga bir martalik kirishni ta’minlash, jarayonlar va harakatlarni birgalikda prognoz qilish imkonini berish orqali butun ta’minot zanjirdagi ishonch darajasini oshiradi.

Logistika xizmatlari samaradorligini oshirish uchun foydalanilayotgan yana shunday raqamli texnologiyalardan biri – bu **Big Data** hisoblanadi. Yagona axborot makonini shakllantirish katta ma’lumotlar texnologiyalaridan (Big Data) foydalanishni belgilaydi. Bu texnologiya resurs zaxiralarini aniqlash va ulardan ta’minot zanjirlarida foydalanishga yordam beradi. Transportda Big Data texnologiyasi transportni optimallashtirish va yetkazib berish yo‘nalishlarini tezda qayta tashkil etish imkonini beradi. Big Data texnologiyasi transportni yanada moslashuvchan qiladi. Ko‘pgina logistika provayderlari tovarlarning ommaviy oqimlarini boshqarish tizimini takomillashtirish muammosiga duch kelishmoqda va katta ma’lumotlar tahliliga sarmoya kiritishni rejalashtirishmoqda.

Ombor logistikasida rivojlanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri **3D bosib chiqarishdan** foydalanish bo‘lib, bu tovarlarning virtual modellari saqlanadigan raqamli omborlarni yaratishga imkon beradi. Bunday omborda buyurtmalar bevosita ishlab chiqaruvchi tomonidan bajariladi va iste’molchining uyiga yetkazib beriladi. Ushbu texnologiyani joriy etish ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish, ombor va transport xarajatlarini kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini kamaytirishda namoyon bo‘ladigan iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, avtomobil va havo transportida tashishni qisqartirish hisobiga ekologik tozalikni saqlash imkonini beradi. Eng yirik yangi sektor 3D bosib chiqarish uchun xomashyoni saqlash va tashish bo‘ladi.

Logistika xizmatlarini ko‘rsatishda qo‘llaniladigan muhim raqamli texnologiyalardan yana biri – bu **buyumlar Interneti (IoT)** hisoblanadi. Ushbu texnologiya ma’lumotlarni uzatish uchun turli xil qurilmalar va obyektlarni Internet orqali bog‘laydigan tarmoqdir. Ta’minot zanjirini boshqarish va logistika xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi buyumlar Interneti tovarlarni tashish xarajatlarini, shuningdek, tranzitda to‘xtab qolish vaqtlarini kamaytiradi va tashish xizmatlarining yanada shaffofligini ta’minlaydi.

Logistika xizmatlarini ko‘rsatishda IoT texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

real vaqt rejimida yuklarni ortish, tushirish, qadoqlash, yuk birligini shakllantirish, yuklarni jo‘natish, qabul qilib olish kabi jarayonlarni kuzatish imkoniyati;

logistika xizmatlari samaradorligini oshirish uchun xodimlar va transport vositalarining ishlashini aniqlash;

buyurtmalarni qabul qilish, omborlashtirish, yetkazib berish, qadoqlash, yuklash, tushirish, ortish va boshqa jarayonlarni avtomatlashtirish;

mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, qoniqish darajasini oshirish.

Iste'molchilar uchun IoT texnologiyasi ham juda muhimdir. Shunday qilib, yuklarni kuzatishda dolzarb va to'g'ri ma'lumotlar iste'molchilarning xizmatga ishonchini hamda ularning qoniqishini oshiradi.

Buyumlar Interneti uskunalari yordamida ichki obyektlarni kuzatish va logistika operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Kuzatuv ko'plab muammolarni hal qilishga yordam beradi. Jumladan:

1. Kengaytirilgan tahlillarni olish. Buyumlar Interneti logistika jarayonlarini boshqarishga yaxlit yondashuvni ta'minlaydi. Uning yordami bilan omborlardagi mahsulot hajmini nazorat qilish, tovarlarni saqlash shartlarini (harorat, namlik darajasi va boshqalar) aniqlash, asbob-uskunalar va xodimlarning unumdorligi va mavjudligini baholash mumkin.

2. Xodimlarning xavfsizligini ta'minlash. Obyektlarni kuzatish sensorlari logistika korxonalarini ishini xodimlar uchun xavfsizroq qilishlari mumkin. Ularning yordami bilan turli pandemiya davrida ijtimoiy masofani ta'minlash, xodimlarning jismoniy holatini kuzatish va ularni agressiv moddalar ta'siridan himoya qilish mumkin. Tizim haydovchilarni xavfsizlik choralariga rioya qilish haqida ogohlantirish, ish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni baholash va xodimlarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni aniqlashga yordam beradi.

3. Tovar zaxirasining monitoringi. Omborlardagi mahsulotlar zaxirasi hajmini nazorat qilish, zaxira hajmining o'zgarishini, zaxira me'yorini aniqlash kabilarni bajaradi.

Monitoring va navigatsiya tizimlaridan foydalanish tufayli butun ombor yoki logistika markazi hududida samarali transport yo'nalishlarini tuzish mumkin. Ushbu yondashuv menejrlarga transport vositalarining ishlashi ustidan nazoratni yaxshilashga va inson omillarining operatsiyalarga ta'sirini minimallashtirishga yordam beradi. Tizimlar xodimlar va aktivlarning xavfsizligini yaxshilaydi. Yopiq marshrutlarni aniq rejalashtirish to'qnashuvlarning oldini olishga va baxtsiz hodisalar bilan bog'liq bo'lgan tovarlarga mumkin bo'lgan zararni oldini olishga yordam beradi.

Buyumlar Interneti orqali optimal marshrutlarni tuzishda bir qator afzalliklarga ega bo'lish mumkin:

aktivlarni kuzatishning aniqligini oshirish;

irratsional trafik tufayli vaqtni behuda sarflashni bartaraf etish;

transport harakati ustidan nazoratni avtomatlashtirish;

transport vositalari va maxsus texnikani boshqarish samaradorligini oshirish;

mijozlar oldidagi majburiyatlarning qat'iy bajarilishini ta'minlash.

Integratsiyalashgan buyumlar Interneti logistika yechimlari aktivlar ustidan yanada samarali nazoratni ta'minlaydi. Ularning yordami bilan omborga kim kirganini, qanday tovarlar tashlanganini yoki saqlanganligini kuzatish mumkin.

Logistika xizmatlarini raqamlashtirish quyidagilarga erishish imkonini beradi:

– turli logistika xizmatlari bozori subyektlarining iqtisodiy jarayonlarini AT vositalari orqali birlashtirish, ta'minot zanjirlarida axborot oqimlari va tizimlarini boshqarishni ta'minlash, biznes jarayonlarni integratsiyalash va optimallashtirish;

– axborotni qayta ishlash va uzatishni jadallashtirish orqali tovarlarga xizmat ko'rsatish va yetkazib berish vaqtini qisqartirish;

– xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hisobiga bozor ulushini oshirish va shu orqali kompaniyaning raqobatbardoshlik darajasini oshirish;

– yuk tashish hajmlarini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash;

– axborotni qayta ishlash, uzatish va saqlash sifatini oshirish;

– qabul qilingan qarorlar samaradorligini oshirish.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar logistika xizmatlari samaradorligini oshirish omili bo‘lib, logistika xizmatlari bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, faoliyatning barcha yo‘nalishlarini raqamlashtirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni ham unutmash kerak. Yagona boshqaruv axborot tizimlari, sun'iy intellekt va boshqalardan foydalanishda tijorat sirlarini va milliy xavfsizlikni saqlash masalalari ochiqlicha qolmoqda.

Bundan tashqari, logistika jarayonlarini boshqarish, robotlashtirish, avtonom (uchuvchisiz) transportni yaratish va boshqalar uchun masofaviy logistika bulutli platformalari, albatta, ishchilarning keng ko‘lamli ishdan bo‘shatilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan davlat oldida mehnat bozorini, shuningdek, ta‘lim sohasini o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish mexanizmini ishlab chiqish vazifasi turibdi. Raqamli logistikaga o‘tishda ularning samarali moslashuvini ta‘minlash va ijtimoiy keskinlikning kutilayotgan kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga kompleks yondashuv talab etiladi.

Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin:

1. Shartnomani tuzish va bajarish. Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish usullaridan biri aqlli shartnomalar tuzishdir. Aqlli shartnoma konsepsiyasi 1996-yilda Nik Szabo tomonidan kiritilgan. Ammo bu texnologiya faqat 2008-yildan keyin blokcheyn texnologiyasini yaratish natijasida keng tarqaldi. Aqlli shartnomalar uchinchi shaxslar, ya‘ni vositachilar ishtirokisiz shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni tuzish va bajarish imkonini beradi. Shartnomaning har bir bosqichini kuzatish mumkin. Lekin uning bajarilishini bekor qilib bo‘lmaydi. Aqlli shartnomalarning asosiy maqsadi shartnoma majburiyatlarini bajarishni tezlashtirish va xarajatlarini kamaytirish, shuningdek xavfsizlikni oshirish va an‘anaviy shartnomalarni tuzishda mavjud bo‘lgan darajadan yuqori ishonchlilik darajasini ta‘minlashdir. Biroq, aqlli shartnoma tuzish mumkin bo‘lishi uchun shartnomaning barcha shartlarini matematik tarzda tasvirlash kerak.

2. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish mumkin bo‘lgan yana bir yo‘nalish – bu yuk tashishdir. Ushbu texnologiyani qo‘llash sharoitida istalgan vaqtda yuk tashish yo‘nalishini, uning joylashgan joyini kuzatish va tranzit kechikish sababini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasini joriy etish transport xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirishi va monopoliyani kamaytirishi mumkin. Agar yuk jo‘natuvchi blokcheyn texnologiyasi orqali yuk tashish bo‘yicha so‘rov yuborsa, eng qisqa marshrut va minimal yetkazib berish muddatini ta‘minlovchi eng samarali tashuvchi avtomatik tarzda tanlanadi. Shunday qilib, logistika xizmatlari ko‘rsatishga kichikroq kompaniyalarning jalb etilishi ortadi.

3. Hozirgi vaqtda IoT texnologiyasi orqali logistika xizmatlari ko‘rsatish uchun qulay muhit paydo bo‘lmoqda. Bu mobil ilovalar bozorining rivojlanishi, korporativ IT tizimida kompaniyalar tomonidan foydalanuvchi qurilmalaridan foydalanish, 5G tarmoqlarining paydo bo‘lishi va ulardan foydalanish, katta ma‘lumotlar bilan ishlash bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Shuningdek, iste‘molchilar innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishni tobora ko‘proq talab qilmoqdalar. Bu esa logistika kompaniyalarida Buyumlar Internetining tarqalishiga va faolroq joriy etilishiga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O.Larin, V.Kupriyanovsky. On transformation of the market of transport and logistics services during the digitalization of the economy. International Journal of Open Information Technologies. 2018, 95-100 pp.
2. Капорцева О.Н. Эффективность рынка логистических услуг в условиях цифровизации экономики. / О.Н. Капорцева // Высшая школа: научные исследования. Материалы Межвузовского международного конгресса (г. Москва, 17 марта 2022 г.). – Москва: Издательство Инфинити, 2022. – С. 21-28.
3. Капкин И.В., Пономарева Н.П. Анализ применения блокчейн-технологий в логистике. – 2021, 56-61 с.
4. Королёва А.А. Экономические эффекты цифровой логистики. Журнал Белорусского

- государственного университета. Экономика. 2019, 68–76 с.
5. Корчагин С.О текущих трендах в развитии технологии блокчейн / С. Корчагин // Свободная мысль. - 2016. - № 4 (1658). - С. 31-38.
 6. Лысенко Ю.В., Лысенко М.В., Гаринов Р.И. Азимут научных исследований: экономика и управление. 2019, 240-242 с.
 7. Негреева В.В., Замятина А.А., Шпакович Д.К., Шаронова А.Д. Использование цифровых технологий в логистике. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2020, №2 94-102 с.
 8. Нигматулин Т.А. Перспективы использования технологии блокчейн таможенными органами РФ / Т.А.Нигматулин, А.И.Краснова, А.А.Лавринович // Ученые записки Санкт-Петербургского им. В. Б. Бобкова Филиала Российской таможенной академии. - 2016. - № 4 (60). - С. 11-14.
 9. The Internet of Things (IoT) [Электронныйресурс]. – URL: <https://www.prnewswire.com/news-releases/theinternet-of-things-iot-market-is-expected-to-grow-from-usd-17057-billion-in-2017-to-usd-56104-billion-by-2022-ata-compound-annual-growth-rate-cagr-of-269-300585814.html> (Дата обращения: 19.04.2020)

<p>О.Раджабов</p> <p>Использование цифровых технологий в повышении эффективности логистических услуг</p> <p>Аннотация: в данной статье освещено использование цифровых технологий в различных отраслях и секторах экономики в период перехода к цифровой экономике, в том числе использование цифровых технологий при оказании логистических услуг. В статье рассматривается использование блокчейна, больших данных, Интернета вещей (IoT) и 3D-печати как цифровых технологий повышения эффективности логистических услуг.</p> <p>Ключевые слова: цифровая логистика, цифровые технологии, блокчейн, большие данные, Интернет вещей (IoT), 3D-печать, интеллектуальные транспортные системы, беспилотный транспорт.</p>	<p>O.Rajabov</p> <p>Using digital technologies to improve the efficiency of logistics services</p> <p>Abstract: in this article, the use of digital technologies in various sectors and spheres of the economy during the transition to the digital economy, including the use of digital technologies in the provision of logistics services, is highlighted. The article considers the use of blockchain, Big Data, the Internet of Things (IoT), and 3D printing as digital technologies for improving the efficiency of logistics services.</p> <p>Keywords: digital logistics, digital technologies, blockchain, Big Data, Internet of Things (IoT), 3D printing, intelligent transport systems, unmanned vehicles.</p>
---	--

Bekzod Maxsudovich Abdumannonov – Menejment kafedrasi assistent-stajyori

EKOLOGIK TOZA JAMOAT TRANSPORTIDAN SAMARALI FOYDALANISH – AVTOMOBILLAR TIRBANDLIGINI BARTARAF ETISHNING KAFOLATIDIR

Annotatsiya: maqolada yirik shaharlarda avtomobillar tirbandligi muammosini bartaraf etish bilan bir qatorda, yildan-yilga ortib borayotgan avtotransport vositalarining harakat oqimini sezilarli darajada pasaytirish, shuningdek shahar atmosferasi, tabiiy biologik xilma-xillikni saqlab qolish, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish, jamoat transportidan va qayta tiklanuvchi energiya manbalari evaziga harakatlanuvchi ekologik toza avtotransport vositalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tirbandlik, atmosfera va atrof-muhitning ifloslanishi, “aqli” yo‘l infratuzilmasi, “Yashil” jamiyat, elektrobust, avtoturargoh, velosiped va elektroskuter, elektromoped.

Kirish. Dunyoning deyarli barcha yirik megopolislari, shuningdek shahar avtomobil yo‘llarida tirbandlik muammosi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, uni bartaraf etish strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan vazifasillardan biri bo‘lib qolmoqda. Yirik shaharlar ko‘chalarida avtomobillar oqimi yildan-yilga ortib, transport vositalarining harakat oqimi esa sezilarli darajada pasaymoqda, shuningdek shahar atmosferasi, tabiiy biologik xilma-xillik, atrof-muhitning ifloslanish darajasi kundan-kunga ortib bormoqda.

Shahar aholisi daromadlarining o‘sishi bilan so‘nggi yillarda shaxsiy avtomobillar soni

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.